Raqs, bu — go‘zallik, so‘zsiz muloqot...

RAQS OLAMI

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi nashri

Gazeta 2020-yildan chiqa boshlagan. MA’NAVIY-MA’RIFIY GAZETA 2021-yil / Noyabr

2021-YIL — YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI

TALABALIK MUBORAK, AZIZ YOSHLAR!

Akademiyamizda 2021-2022 o‘quv yili uchun o‘qishga qabul qilingan yigit-qizlarga talabalik guvohnomasini topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Uni O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Jahongir G‘aniyev tabrik so‘zi bilan ochdi va 1-kursda tahsil olishni boshlagan talabalarga ta’lim olish jarayonida namuna ko‘rsatib, ko‘plab yutuqlarga erishishlarini, kelgusida sohaning yetuk mutaxassisi sifatida yurtimiz rivojiga munosib hissa qo‘shishlarini tiladi.

Shuningdek, Xoreografiya kafedrasi mudiri Durdona Abduhakimova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Qo‘rqmas Sagatov va tyotor Xurshid To‘xtayevlar ham talabalarni qutlab, ularga o‘zlarining iliq tilaklarini bildirdilar.

Shundan so‘ng, 1-kurs talabalariga guvohnomalar topshirildi va ular ta’lim olish jarayonida akademiyaning tartib-qoidalari va nizomiga qat’iy rioya qilishga tantanavor va’da berdilar.

Akademiyaning iqtidorli yoshlari ijrosidagi hajviy sahna ko‘rinishi va sho‘x kuy-qo‘shiqlar tadbirga yanada bayramona ruh bag‘ishladi.

O‘zDXA matbuot xizmati

2021-yil mening hayotimda omadli yil bo‘ldi. Chunki men O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining san’atshunoslik yo‘nalishiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilindim. Qalbimdagi ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqim, mehrim, g‘ayratim mehribon ustozlarim tufaylidir. Yangi adabiyotlar, yangi do‘stlar, yangicha fikrlar bularning barchasi mening hayotga bo‘lgan muhabbatimni, ilm-ma’rifatga bo‘lgan intilishimni yana-da oshirmoqda.

QALBIM IFTIXORI – O‘ZBEKISTON BAYROG‘I

Hozirgi kundagi yurtimizda bo‘layotgan shiddatli o‘zgarishlar, islohotlar mening ham nazarimda, qarashlarimda aks etmoqda. Talaba bo‘lgan baxtli lahzalarimdan boshlab menga Davlatimiz mustaqilligining 30 yilligini, Ustoz va murabbiylar bayramini, O‘zbek tili bayramini akademiyadagi ustozlarim bilan birgalikda nishonlash nasib etdi. Shu kunlarda Respublikamiz bo‘ylab nishonlanadigan nufuzli bayramlardan biri - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog‘i qabul qilingan kunni bayram sifatida nishonladik.

Davlat tadbirlarida, mamlakatimizga chet mamlakatlardan mehmonlar kelganida, sportchilarimiz dunyo minbarlarida g‘olib bo‘lib Vatanimiz bayrog‘i yuksaklarga ko‘tarilganda beixtiyor ko‘zlarimga yosh keladi. Tariximizdan ma’lum, bir bayroq ostida birlashib millat bo‘lgan o‘zbek xalqimizning o‘tmishda ham jasur va botir qahramonlari jang maydonlarida yurt bayrog‘ini yuksaklarga ko‘tarib jangchilarga jangovor ruh berganlar. Jon bersalar ham Vatan bayrog‘ini dushmanga bermaganlar.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida dunyo xalqlari bilan tenglasha oladigan nufuzini aks ettiradigan Bayrog‘imiz bugun poytaxtimizdagi “Xalqlar do‘stligi” majmuasida, Tashselmash prospektida, qolaversa, Respublikamizdagi 12 ta viloyatning markaziy shaharlarida qad ko‘tarib turibdi. Masalan, Urganch shahridagi 66 metrli bayroq ham qadimiy shahrimizga yana-da muhtashamlik kasb etgan.

18-noyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganiga 30 yil to‘lishi munosabati bilan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan xorijda o‘qiyotgan vatandoshlarimiz ishtirokida bayramona tabriklar, she’r va qo‘shiqlar chellenji uyushtiriladi, tanlovlar o‘tkaziladi. “O‘zbekiston”, “Xilton” mehmonxonalari, “Humo Arena” va hududlardagi baland binolar fasadlarida zamonaviy chiroqlar yordamida davlat bayrog‘i tasviri ifoda etiladi, jamoat transportlariga davlat bayroqlari o‘rnatiladi. Poklik, soflik tinchlik ramzi bo‘lmish bayrog‘imiz qabul qilingan kun, keng miqyosda tantanali o‘tkaziladi va bu bayram har yili ana shunday shukuh bilan davom etadi. Taniqli shoiramiz, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Zulfiya Mo‘minovaning “O‘zbekiston bayrog‘i” she’rini o‘qib, yodlar ekanman:

Yurt bayrog‘in o‘pganlar, ey baxtidan
shodonlar,
Vatan so‘zin har bir harfi yuraklarning
titrog‘i.
Osmon bizning boshlarga yiqilmaydi
yoronlar,
Osmonni ushlab turar O‘zbekiston bayrog‘i.

Bu shunchaki bayroq emas, soyasida yurt
yashar,
Soyasida millat yashar, gullar aziz
tuprog‘i.
Osmon bizning boshlarga yiqilmaydi
yoronlar,
Osmonni ushlab turar O‘zbekiston bayrog‘i,

— degan o‘tli satrlari har birimizning yuragimizda baralla yangrashini tilab qolgan bo‘lar edim.

Dildora ABDUZOHIDOVA,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
1-kurs talabasi

OFARIN “MOROSHKA”

Har bir oilaning o‘z an’analari va odatlari bo‘lganidek, biz ham tez-tez teatr, balet, opera va konsertlarga borib madaniy hordiq chiqarish hayot tarzimizning bir bo‘lagiga aylangan. Oilamiz a’zolari san’atga oshufta va uni qadrlaydigan insonlar. Shuning uchun ham biz madaniyat va san’at saroylarida o‘tkaziladigan konsertlar hamda teatr tomoshalariga tez-tez borib turamiz.

Bolaligimdan san’atga bo‘lgan qiziqishimning bosh sababi ham shu bo‘lsa kerak deb o‘ylayman.

…Ota-onam bizni bolaligimizdan turli teatr spektakllari, konsert dasturlari, sirk va muzeylarga olib borishardi. Bo‘sh vaqtlari bo‘lishi bilan hamisha ularning qo‘lida kitob ko‘rardim. Uyimizning har bir xonasida esa alohida-alohida kitob, jurnal va gazetalar javoni mavjud. Bundan tashqari, televizor orqali oilaviy biror-bir filmni tomosha qilganimizdan so‘ng uni tahlil qilib, o‘zaro fikr almashamiz.

Ushbu an’analarimizga sodiq qolgan holda dadam, onam, opam va men yaqinda “Turkiston” san’at saroyida bo‘lib o‘tgan Sankt-Peterburgning (Rossiya Federatsiyasi) “Moroshka” ashula va raqs teatrining “Peterburg rus mo‘jizasi” deb nomlangan konsertiga bordik.

Rossiyalik san’atkorlar o‘zbek san’at shinavandalariga atoqli rus san’ati ustalari qo‘shiqlari va raqslaridan bahramand bo‘lishdi.

Butun ijodiy dastur musiqalari rus cholg‘ulari orkestri tomonidan jonli ijro etildi. Zalda nafaqat ushbu janrning xitlari, balki “Kalinka”, “Ark ostida qo‘ng‘iroq chalinadi” qo‘shiqlari, yosh kompozitor Sankt-Peterburg konservatoriyasining bitiruvchisi, xalqaro tanlovlar laureati Yelizaveta Panchekoning asarlari yangradi. Bu xalqona asarlar barchaga birdek ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi. Dasturda xoreografik kompozitsiya, xalq sahna raqsi talqini hamda raqqos va raqqosalarning murakkab texnik ijrolari tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Xalqaro va umumrossiya tanlovlari laureatlari bo‘lgan Sankt-Peterburg madaniyat va san’at oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari bo‘lgan yosh yigit va qizlardan iborat vokal ijrochilari guruhi birinchi notadanoq tomoshabinlarni o‘ziga rom qilib olishdi. Har bir asar uchun maxsus yaratilgan go‘zal

I.A.Moiseyev, S.M.Godenko, V.V.Andreyev, A.V.Alesandrovlarning eng yaxshi ijodiy an’analari asosida yaratilgan konsert dasturini namoyish etishdi.

Ijodiy konsertni O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi raisi Adham Ikromov va Sankt-Peterburg tashqi aloqalari qo‘mitasi raisi Yevgeniy Grigoryev ochib berdi va mehmonlar hamda ishtirokchilarga qutlov so‘zlari bilan murojaat etib, O‘zbekiston poytaxti aholisi va mehmonlari uchun maxsus tayyorlangan ijodiy konsert dasturi uchun Sankt-Peterburg jamoasiga minnatdorchilik bildirishdi.

Tomoshabinlar xalqaro va umumrossiya tanlovlari laureatlari, balet raqqos va raqqosalari, betakror vokalistlar, rus xalq cholg‘ulari orkestri dirijyori hamda musiqachilaridan iborat bo‘lgan Sankt-Peterburglik san’at ustalari ijrosidagi rus liboslar, nafis xoreografik kompozitsiyalar, yuksak texnik ijro mahorati va go‘zal ovozlar hech kimni befarq qoldirmadi. Konsertning yana bir o‘ziga xos jihati shunda bo‘ldiki, rus xalqining kuy-qo‘shiqlari va raqslari rus milliy mentalitetiga xos xarakterda ijro etildi. Tomoshabinlar go‘yoki, o‘zlarini xuddi rus diyorida yurgandek his etdilar.

Xulosa qilib shuni aytishni istardimki, ushbu ashula va raqs teatri a’zolaridan biz talabalar, magistrantlar hamda xoh havaskorlik, xoh professional ashula va raqs ansamblari a’zolari bo‘lsin o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqat, ishga bo‘lgan munosabat hamda mas’uliyatni o‘rgansak arziydi.

Shukrona KAMOLIDDINOVA,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
3-kurs talabasi



XALQARO KONFERESIYA: SOHADA YANA BIR TAJRIBA

Moskva davlat xoreografiya akademiyasi tomonidan «Актуальные вопросы развития искусства балета и хореографического образования» mavzusidagi V xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya tashkil etildi. Unda akademiyamizning professor-o‘qituvchilari, yosh tadqiqotchilar va magistrantlar ishtirok etishdi. Xalqaro anjumanda xoreografiya san’ati tarixi, buyuk namoyondalari, buguni va istiqbollariga oid ma’ruzalar tinglanib, o‘zaro savol-javob va fikr-mulohazalar almashilindi.

Yakunda Ilmiy-ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Mirmuhsin G‘ofurov ushbu xalqaro konferensiya tashkilotchilarga minnatdorchilik bildirib, bu kabi ilmiy-amaliy anjumanlar xoreografiya sohasining rivojiga katta hissa qo‘shishini va hamkorlik aloqalari soha ravnaqida alohida rol o‘ynashini ta’kidladi.

Til — millat ko'zgusi, ko'ngil qulfining kalitidir. U eng kuchli va subhidamda eng o‘tkir qurol, istalgan manzildagi nishonni ura oladi. U bir shamshir bir urinishda qalbni yakson qilishga, bir qadami ila qayta jon baxsh etishga qodir.

ONA TILIM ABADIY YASHA!

Bu kurrayi zaminda 7000 ga yaqin til va lahjalar mavjud va ulardan atigi 400 tasi o‘z yozuv shakliga, 180 ga yaqini davlat tili maqomiga ega. Hayriyatki, biz bu borada yuqori o‘rinlardamiz.

Til — millatning milliy mafkurasi, madaniyati va tamadduniga chambarchas bog’liq unsur. U sabab biz tuyg’ularimizni atrofdagilarga bayon etamiz. Yer yuzida faqat insonlargagina bu aziz ne’mat armug'on etilgan. Ammo hamma ham bu benazir tortiqni yetarlicha qadrlayaptimikin? Aslida olam ham birgina “Kun” ya'ni Yaral so'zidan paydo bo'lgan.

So‘zlayotgan har bir so‘zimiz teranlik ko‘prigidan, mulohaza chig’irig’idan o‘tmas ekan, demak, u behudaga ketibdi. Chunki, to‘q qoringa tanovvul qilingan taom kabi noo‘rin aytilgan so‘z ham isrof qilingan bilan barobardir. Insonning butun tanasi 100 grammgina til tufayli azob chekishi ham, maqtovlar yomg'irida qolishi ham mumkin. U xoh duo-yu niyatda, xoh insonlar bilan munosabatda bo'lsin, o'z zalvorini yo'qotmaydi. Til — tananing muvozanatidir, agar u to‘g’ri bo‘lsa, boshqa a’zolar ham to’g'ri bo'ladi.

G’arb olimlarining fikricha, og‘zimizdan chiqayotgan har bir so‘z uchta darvozadan o‘tmog’i zarur: birinchidan, u o‘z o‘rnida qo‘llanilishi, ikkinchidan, u tinglovchiga manfaatli bo‘lishi va uchinchidan u so‘zlovchiga ziyon yetkazmasligi. Biroq, bugun jamiyatimiz odamlari bu qoidalarga to‘laligicha amal qila oladi deya olmaymiz.

“Muvaffaqiyatga erishay, jamiyatda obro‘ topay desang tilingni yaxshi qil”-degan edi donolardan biri. Boshqa bir kitobda esa: “Sening qanday so‘zlashing, zohir va botiningning ko'zgudagi aksini ko'rsatadi” deyilgan. Til ham ko'ngildek muqaddas, uni ham pok saqlashimiz, insoniylik chegaralarini buzmasligimiz lozim.

Jahongir NORMAMATOV,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
1-kurs talabasi

17-noyabr — Xalqaro talabalar kuni

Talabalik men uchun....

Talabalik! Men uchun chin ma’noda haqiqiy baxt. Inson yetishishi murakkab narsa, aziz va qadrli bo‘ladi deyishadi. Bu haqiqat. Mazkur ta’lim muassasasiga kirgunga qadar 3-4 marotaba imtihonlardan yiqilganman. Shu sababli, talabalik shaxsan men uchun “oltin davr”. Shuning uchun ham bu davrimni faqat va faqat o‘qishga, o‘z ustimda ishlashga sarflamoqchiman. Garchi oilalik bo‘lsam-da, o‘qishdan tashqari ishlasam-da, yoki bo‘lmasa bo‘sh vaqtlarimda bolalarga ingliz tilidan dars bersam-da, o‘qish uchun, o‘z ustimda ishlash uchun albatta, vaqt topishga harakat qilaman. Men oliy ta’lim dargohini haqiqiy ma’noda karyeraning boshlanish nuqtasi, ilm o‘chog‘i deb bilaman.

Akademiyamiz menga juda qadrli. Necha yillar mobaynida katta auditoriyada talabalar safida bo‘lishni orzu qilganman, shunga intilib yashaganman. Allohga shukur-ki, ushbu orzum 2020-yilda amalga oshdi… Men ham ko‘pchilik baxtli talabalar qatorida oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga qabul qilindim. Ilk marotaba talaba sifatida auditoriyada o‘tirganim hech ham esimdan chiqmaydi… Ichimda yashirin bir ovoz nahot bu haqiqat bo‘lsa? Nihoyat orzuying amalga oshdi, deb hayqirardi...

Buning uchun menga yaqindan yordam bergan, birga-birga dars tayyorlagan, hatto insholarimni tekshirgan, savollar bo‘yicha turli munozaralarni olib borgan qaynona oyijonim, hamda meni qo‘llab quvvatlab kelayotgan barcha oila a’zolarimdan minnatdorman. Hatto hozir ham men o‘qishda talabalik gashtini surib, maroq ila ta’lim olayotgan vaqtimda farzandimga qarab, unga g‘amxo‘rlik qilayotganlaridan juda ham xursandman. Ushbu dargohda men o‘zimni ba’zan talaba, ba’zan opa, ba’zan singil, ba’zan bo‘lajak jurnalist, yoki pedagog sifatida his qilaman. Akademiyamizda menga yoqadigan taraflaridan biri, unda talabalarda nutqni yanada shakllantirish, nutqini to‘g‘ri va ravon bo‘lishini ta’minlash uchun, darslar faqat leksiya shaklida emas, balki, seminar darslar shaklida ham bo‘lishidir.

Bunda talaba darsga xuddi o‘qituvchi-pedagog sifatida darsga tayyorlanib keladi, o‘zidagi bor bilimlarni boshqalarga ham yetkazadi. Shaxsan men bunday vaqtlarda o‘zimni xuddi o‘qituvchidek his qilaman hamda bor fantaziyalarimni ishga solgan holda, darsni qiziqarli va maroqli bo‘lishiga bor kuchim bilimim intilaman.

Ushbu jarayonlar men uchun haqiqiy amaliyotdir. Sababi, kelajakda men ham shu dargohda o‘qituvchi sifatida o‘z ish faoliyatimni olib bormoqchiman. Nafaqat oddiy o‘qituvchi, balki professor bo‘lish niyatim ham bor. Shu bilan bir qatorda oilamni ham o‘z o‘rniga qo‘yib, onalik, kelinlik, ayollik vazifa va burchlarimni ham a’lo darajada bajarmoqchiman. Ishonaman-ki ushbu “oltin davr”imning har bir lahzasidan unumli va foydali foydalangan holda, ushbu orzularimga albatta, yetishaman.

Nozima PO‘LATOVA,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Orzular har doim ham amalga oshishi shartmikan? Balki biz oddiy havas bilan orzuni ajrata olmasmiz. Misol uchun o‘zim, universitetda o‘qishni, men talabaman deb, faxrlanishni juda istaganman. Orzum amalga oshdi. Ko‘z ochib yumguncha 2-kurs ham bo‘ldik. Aslida bolaligimdan san’at sohasida ishlashni istaganman. Bugun esa aynan shu sohada o‘qiyapman.

Bugun anchayin ulg‘ayganman. Fikrlashim ham o‘zgargan. Ishlayapman. Bundan juda mamnunman. Inson o‘tgan ishlardan hech ham afsuslanmasligi kerak. U bugungi kundan unumli foydalanishi va o‘zini anglashi zarur ekan. Demak, shunday bo‘lishi kerak ekan, bo‘ldi deb qarashi kerak va undan dars olishi lozim. Ishonaman, meni o‘zgacha kelajak kutyapti.

Sohiba ISOMUDDINOVA,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Talabalik men uchun uzoq kutilgan yutug‘im, omadim, baxtim deb bilaman. Axir bu kunlarni besh yil kutdim. Shu yillar mobaynida hech ham bo‘sh kelmadim. Tayyorlanishdan, hujjat topshirishdan bir muddat bo‘lsa-da charchamadim. Qo‘l siltashni xayolimga ham keltirmadim. Oxir-oqibat maqsadimga yetdim. Men ham talaba bo‘ldim. Maqsad qildingmi, unga erish. Eng asosiysi, maqsadni to‘g’ri qo‘y. Bu mening shiorimga aylandi. Bu davrni qadriga yetaylik, o‘qib, izlanaylik.

Aziza HOSILOVA,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Talabalikni bolaligimdan orzu qilardim. O‘qituvchilarim bilan uzoq suhbat qurar edim. Ular menga maktabdan keyingi ta’lim inson uchun juda zarurligi ni aytishardi. Ularni o‘zgacha orziqish bilan tinglardim. Biroq bu kunlar menga istaganimdek tez nasib etmadi. Ammo bu uchun taqdirdan hech ham xafa bo‘lmadim. Axir, hechdan ko‘ra kech deyishadi-ku.

Bugun esa talabaman. Ayrim o‘qituvchilarimning har bir so‘zini diqqat bilan tinglayman, har bergan saboqlarini qadrlayman. Sababi, bugungi kunlarga yetishish osonlikcha kelmadi. Anglaganim, hech ham yengilmaslik kerak ekan.

Surayyo ISMATOVA,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi



Orzular turlicha bo‘ladi. Ayrimlari amalga oshadi, ayrimlari esa yo‘q. Ammo u ushalmasa hech qachon umidni uzish kerak emas ekan. Sababi, kech bo‘lsa-da o‘sha biz kutgan kunlar kelar ekan. Talabalik — bu mening yetti yilda erishgan baxtim.

Rahmatli ota-onamga albatta, o‘qiyman deb va’da bergan edim. Yaratgan menga shunday baxtni in’om etdi. Bugun talabaman. Bu baxt hammaga ham nasib etavermaydi. Endi bolalikdagi orzularni maqsadga aylantirish vaqti kelgandi. Yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun a’lo darajada bilim olish, uni amaliyotga tatbiq etish talab etiladi. Uni bajarmay qo‘ymaymiz.

Muqaddasxon XUDOYBERDIYEVA,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi



18-noyabr — O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun

VATAN TUG‘I

Istiqlolning ko‘prigidan o‘tib o‘zbek,
Dast ko‘tardi ko‘hna millat bayrog‘ini.
Endi jabr-sitamlarning qaddi egik,
Tili biyron bo‘ldi Temur avlodini.

Firuzarang samoga ham ko‘rk ulashib,
Miltillaydi diyonatin pok jarchisi.
Erk yulduzi g‘uj-g‘uj bo‘lib shu’la sochib,
Olqishlaydi hurlik kuyin ijrochisin.

Tanimizda jo‘sh uradi alvon-alvon,
Bobolarning qatra-qatra umidlari.
Mag‘rib-u Mashriqlik boqadi hayron,
Hilpirasa Chin-mochinda yurt bayrog‘i.

Dil pokligi andozadir xalq yo‘liga,
Tomchisiman men ham ushbu sodda xalqning.
Yuragimga o‘yib Vatan bayrog‘ini,
Asragayman tortig‘ini qodir Haqning!

Jahongir NORMAMATOV,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

SAHRODAGI RAQQOS

Insoniyat shunaqa, biror bir asar bo‘lsin, yoki qo‘shiq, yoxud biror bir film istar-istamas ta’sirlanadi, ular haqidagi fikrlari bilan oppoq qog‘ozni yozuvlar bilan to‘ldiradi…

“Танцующий в пустыне” filmi real voqealar asosida suratga olingan bo‘lib, Eron hayotidan, eronlik yigitning maqsadi uchun kurashishi va unga qo‘yilgan tazyiqlardan so‘zlaydi.

Bosh qahramon Afshin o‘z maqsadi uchun harakat qilayotgan oddiy yigit. Uning orzusi raqs san’atini o‘rganish va o‘z studiyasini tashkil etish. U yurtida raqsning san’at sifatida tan olinishining tarafdori edi. Afsuski, siyosat bunga tamomila qarshi. Vaholanki, Eronda raqs sevib ijro etiladi.

Aslida u yurtda Afshinga o‘xshagan yigit-qizlar ko‘p: o‘z erki, maqsadi, kelajagi uchun kurashayotgan va ko‘plab nohaqlik, adolatsizliklarga uchrayotgan, azoblanishini bilsa-da taslim bo‘lmay harakat qilayotgan yoshlar.

Meni hayratga solgan jihati shunda-ki, ular shijoatni, jasoratni qayerdan olishyapti? Barcha sharoitlar yaratilgan bo‘lishiga qaramay, o‘z ustida ishlamay, na hunar, na kasb tanlamay, kelajagi haqida zig‘ircha ham o‘ylamaydiganlar bor oramizda. Ular esa mamlakatdagi taqiqlarga faqat oldinga intilish bilan kurashmoqdalar.

Filmni kuzatar ekansiz, Afshinning sahrodagi raqsi sizni befarq qo‘ymaydi. Undagi yigit va qiz ijrosi ostida chuqur ma’no yotadi. Go‘yo bu erkinlikning uyg‘onishi, uning o‘ldirilishi, o‘lsa-da ruhining isyoni!

Afshin bosib o‘tgan hayot yo‘llarini kuzatib, shukronalik va maqsad uchun kurashishdan to‘xtamaslik hissini tuyadi kishi, zero oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa o‘n beshi yorug‘ deganlaridek, bir kunmas bir kun albatta, harakatlaringiz mevasini yeysiz!

Film so‘ngida zo‘ravonlik ostida qolgan Afshin o‘z yurtidan ketishga majbur bo‘lib, ilk bor raqqos sifatida Fransiya sahnasida raqs ijro etadi. Ushbu ijro u boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklar izohi edi…

Ma’lum bo‘lishicha, Afshin raqs bo‘yicha o‘qib, o‘rganibdi. O‘zi istaganidek, raqs studiyasini tashkil etibdi. Biroq uning ko‘ngli kemtik, u orzusiga yetishdi ammo o‘zga yurtda!

Sahrodagi ozod ruhni his etishni istaysizmi, tavsiya qilaman, bu filmni albatta ko‘ring.

Nargizaxon YUNUSXO‘JAYEVA,
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Xabaringiz bor yurtimizda oltin kuzning ilk kunlaridayoq san’atimiz tarixida misli ko‘rilmagan voqealar yuz berdi. O‘zbekiston Respublikasining 30 yillik yubileyiga sovg‘a sifatida san’atkorlarimiz tomonidan ajoyib san’at asarlari xalqimizga taqdim etildi: 1-sentabrda “O‘zbek raqsining afsonalari” hujjatli filmi, 5-sentabrda “Lazgi” baleting premyerasi xushxabar bo‘lsa, yana biri “Toshkent Xalqaro kinofestivali” ning qayta “Buyuk Ipak yo‘li durdonasi” nomi bilan dunyo kino ixlosmantlari nigohida bo‘lishi.

IPAK YO‘LI DURDONASI

Akademiyamizning bir guruh talabalari “O‘zbekkino” milliy agentligida bo‘lib o‘tgan “Buyuk Ipak yo‘li durdonasi” XIII Toshkent xalqaro kinofestivalida ishtirok etishdi. O‘zbek milliy kino san’atining yangi durdonasi – “Mirzo Ulug‘bek – osmon toqiga qo‘yilgan narvon” nomli hujjatli film premyerasi namoyishi, pavilionlardagi turli mahorat darslari, ayniqsa, mashhur fransuz aktyori Jerar Depardye bilan ijodiy uchrashuv talabalarimizda katta taassurot qoldirdi.

Bu festivalga borishdan maqsadimiz, nafaqat raqs sohasi, balki, “O‘zbekkino” san’atidagi yangiliklar, Toshkent xalqaro kino festivalning kecha va buguni hamda uning shonli tarixi haqida ma’lumotga ega bo‘lish edi. Uni tengdoshlarimiz orasida joiz bo‘lsa targ‘ib qilish istagidamiz. Festivalda bevosita deyarli barcha kunida ishtirok etdik. Undagi mahorat darslari, yulduzlar bilan uchrashuvlar, qisqa metrajli va hujjatli filmlarning namoyishlari bizda o‘zgacha taassurot qoldirdi.

Meni kuchli hayajonga solgan filmlardan biri “Mirzo Ulug‘bek – osmon toqiga qo‘yilgan narvon” da Temuriylar davri, undagi ilm-fanga bo‘lgan e’tibor, Mirzo Ulug‘bekni hukmdor bo‘lishi bilan bir qatorda ma’rifatparvar, ilm ahlining rahnamosi ekanligini oddiy va sodda tilda tomoshabinlarga yetkazib berildi.

Zoir O‘ROQOV,
“San’atshunoslik” ta’lim
yo‘nalishi 2- kurs talabasi

O‘ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI VAKANT O‘RINLARGA TANLOV E’LON QILADI

1. **“Ijtimoiy-gumanitar fanlar”** kafedrasi dotsenti (1ta o‘rin)
2. **“Xoreografiya”** kafedrasi katta o‘qituvchisi (1ta o‘rin)

TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILISHI LOZIM:

1. Rektor nomiga ariza.
2. Xodimning shaxsiy varaqasi.
3. Ma’lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqidagi diplom nusxalari.
4. Pasport nusxasi.
5. Ilmiy ishlar ro‘yxati (ilmiy kotib tomonidan tasdiqlangan holda).
6. Malaka oshirganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi.
7. Mehnat daftarchasining nusxasi.

Hujjatlar e’lon chiqqan kundan boshlab **1 oy muddatda** qabul qilinadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy.
Telefonlar: 71 215-55-94, 71 215-56-98.

RAQS OLAMI

MUASSIS:
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

TAHRIR HAY’ATI:
Mirmuhsin G‘OFUROV
Jahongir G‘ANIYEV
Hulkar HAMROYEVA
Matluba MURODOVA
Dildora QOSIMOVA
Po‘lat TOSHKENBOYEV
Venera ABLYAYEVA

BOSH MUHARRIR:
Shuhrat TOXTASIMOV

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Bizning manzil:
100031, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy.

NASHR UCHUN MAS’UL
To‘maris A’ZAM

Nashr indeksi: 145
Ofset usulida bosildi.
Qog‘oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti: 18:00
Bosishga topshirildi: 21:25
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda.

Sahifalovchi:
Dilmurod DO‘STBEKOV

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.

“NISO-POLIGRAF” MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, “Oq ota” MFY, Mash’al qo‘rg‘oni, Markaziy ko‘chasi, 1-uy.

Buyurtma:_____
Hajmi 1 bosma taboq.